



ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

**МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ ТҮПЛАМИ**

www.openscience.uz

**26 ИЮНЬ
№3 2020**

Конференция

шўъбалари:

- 1. Аниқ фанлар**
- 2. Табиий фанлар**
- 3. Техника фанлари**
- 4. Педагогика фанлари**
- 5. Ижтимоий фанлар**
- 6. Филология**
- 7. Иқтисод фанлари**



SCIENCE AND EDUCATION
SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN 2181-0842

**ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМНИНГ РИВОЖЛАНИШ
ИСТИҚБОЛЛАРИ**
УЧИНЧИ КОНФЕРЕНЦИЯСИ ТЎПЛАМИ
26 ИЮНЬ 2020 ЙИЛ

(8-ҚИСМ)

**PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE
AND EDUCATION**
PROCEEDINGS OF THIRD CONFERENCE
26 JUNE 2020

(PART-8)

**MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARINI TA'LIMGA JALB
ETISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR**

X.N. Muzaffarova
A.Qodiriy nomli JDPI o`qituvchisi
O. Ismatullayev
Defektologiya yo`nalishi III-kurs talabasi

Ma'lumki, rivojlanishida nuqsoni bor bolaning tug'ilishi oilaning istiqbolini tubdan o'zgartiradi. Farzand tarbiyasida ota-onalarning vazifalar ko'ndalang turadi, nuqsoni bor bolani tarbiyalashda esa ular bir necha muammolarga duch keladilar. Bunday oilalarni aniqlash, alohida yordamga muhtojoj bolalarni reabilitatsiya qilish va matabga tayyorlashda ularning ota-onalariga bu borada korreksion-pedagogik yordamni berish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunning yana bir muhim masalalaridan biri bo'lgan bolalar nogironligini aynan ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar tashkil etishi mantiqan to'g'ri ma'lumot.

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan har bir maxsus o'quv muassasasi borki, undagi bolalar masalalariga oid ishlarning barchasi ota-onalar roziligi asosida amalgalashadi. Inklyuziv ta'lim deb nom olgan tizim esa bolalarning ta'lim olishida o'ziga xos huquqiy asosni yaratadi. Bunday ta'lim tizimi shunday falsafaga asoslanganki, hamma bolalar nogironligining og'irligiga qaramasdan, ular ta'lim tizimining jonli hamda ajralmas vakillari sanaladi. Ammo, alohida yordamga muhtojoj bolalarning maxsus ta'lim dasturi talablariga qanchalik layoqatli ekanini aniqlash ham muhim vazifalardan biri ekanligini unutmaslik kerak.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida nogiron bolalarni tayyorlashda quyidagi kamchiliklar borligi aniqlangan:

- alohida yordamga muhtojoj bolalarni umumta'lim maktablarida tayyorlashda professionallikning yetishmasligi,
- korreksion tayyorlov dasturi, maxsus asbob-uskuna va texnika vositalarining yo'qligi,
- nogiron bolalarning ota-onalari uchun psixolog yordamining tashkil etilmaganligi,
- nogiron farzandi bor ota-onalarga birlamchi korreksion pedagogik ko'nikmani berishda maxsus pedagog va mutaxassislarining yetishmasligi.

Ko'rsatilgan sabablar umumta'lim maktablarida nogiron bolalarni qabul qilish sharoitlari va imkoniyatlarini cheklaydi, albatta. Inklyuziv ta'limni umumta'lim maktabda nogiron bolalarga qonunchilik asosisiz, ilmiy, tashkiliy, tibbiy manbasiz,

texnika vositalari imkoniyatisiz singdirish mumkin emas, aks holda, bu maqsadga yo'naltirilgan g'oyalar alal oqibat katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ayni kunda ta'lim tizimi muammolarini sirasiga oila muammolaridan sanalgan alohida yordamga muhtoj bo'lган bolalar bilan bog'liq masalalar o'zining dolzarblik xususiyatini yo'qotmagan. Aynan Toshkentdagi nogiron bolalar va ota-onalar klubiga tegishli ma'lumotlarga qaraganda, poytaxtda bunday oilalar soni 2000 dan ortiq ekanligi ma'lum bo'ldi. Bolalarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish haqida gap ketganda, albatta to'g'ridan-to'g'ri oilasidan oladigan yordam tasavvur etiladi. Agarda bunday oila iqtisodiy tanglik holatida bo'lsa, ijtimoiy mehnat va ta'lim olishda to'sqinliklarga duch kelsa, tabiiyki, u o'zini ruhan ojiz sezadi. Natijada, ota-onalar farzandlarining har tomonlama o'sishi hamda rivojlanishi yo'lida unga madad bo'lish o'rniqa, undan samara kutishdan ancha yiroqda bo'ladi. Faqatgina nogiron farzandi bor bo'lган oilalarning muammolari o'z yechimini topgan taqdirdagina, ularni to'liq reabilitatsiya va integratsiya bilan ta'minlashi mumkin.¹

Mehnat va ijtimoiy ta'minot vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, nogironlar ichida 3-11% gacha bo'lган bolalar tug'ma nuqson va nasliy kasalliklar bilan tug'ilgan. Ularning deyarli yarmi bu kasalliklar oqibatida nogiron bo'lib qolishayapti. Bunga sabab ota-onalar farzandlaridagi nuqsonni juda kech sezishadi va uni reabilitatsiya qilish uchun kerakli zarur choralarini o'z vaqtida ko'rishmaydi.

Respublikamizda voyaga yetmagan bolalar o'rtasida nogironlik oshishi sababining asl mohiyatini surishtiradigan bo'lsak, oldingi davrda faqatgina sog'lom bolalar yashab qolishga muvaffaq bo'lishgan, bugungi kunda tibbiyotning taraqqiy etgani sababli nuqson bilan tug'ilgan bolani ham hayotini saqlab qolishga erishilyapti. Ma'lumki, rivojlanishida nuqson va buzulishlarning barchasi ham chaqaloqlik davrida yuzaga kelavermaydi. Bunday o'zgarishlarning aksariyati kattaroq yoshda aniqlanishi mumkin. Ular ko'pincha asab sistemasining, eshitish va ko'rish a'zolari hamda nutqdagi nuqsonliklar misolida namoyon bo'ladi.

Chet el adabiyotlarida rivojlanishida nuqsoni bor bolalarga go'daklik davridanoq erta yordam ko'rsatishning turli modellari yozilgan bo'lib, bunga Shvetsiyadagi markazlar, AQSHdagi erta dahl qilish dasturi kiradi. Sankt-Peterburg shaxridagi "Integratsiya tarbiya markazi" yuqoridagi markazlarning modeli asosini hisobga olgan holda Erta yordam ko'rsatish xizmatini (Служба ранней помощи - СРП) tashkil etgan bo'lib va hozirgi davrgacha ish olib bormoqda. Erta yordam ko'rsatish xizmatining faoliyati rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning go'daklik davridanoq (0 dan 3 yoshgacha) va ular oilalariga yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan. Adabiyotlarda keltirilgan ko'p yillik olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar perinatal patalogiya erta aniqlansa, bola hayotining birinchi oyalarida va tegishli korrektion

¹ Муминова Л., Чичерина Я., Нуркелдиева Д. Диагностика психофизического развития детей первых лет жизни. Т.: РССАД, 2007г.

davolash ishlarini tashkil etilsa, bu o'zgarishlarni yengishda katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.²

Agar bolalarni perinatal patalogiya bilan kech aniqlansa va tegishli korrektcion ishlar olib borilmasa, og'ir darajada tayanch-harakat, ruhiy va nutq buzilishlari kelib chiqishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Tajribalar shuni ko'rsatganki, bola hayotining birinchi yilida rivojlanishida uncha ko'zga tashlanmaydigan o'zgarishlarni payqamay, kerakli davolash va o'qitish chora-tadbirlari olib borilmasa, kelajakda ta'lim olishda qiyinchilik va muammolarga duch kelish muqarrar.

Boshqa tomondan rivojlanishida og'ir o'zgarishlar bo'lgan bola bilan har tomonlama tegishli mashg'ulotlar olib borilsa, yuqori natijalarни qo'lga kiritishga imkon beradi. Shuning uchun ham, mashg'ulotlar qanchalik erta boshlansa, kutilgan samaraga erishish shunchalik oson kechadi.

² Chicherina Ya., Isaeva D., Bondareva Ye. Erta tashxis va abilitatsiya. T.: RBIMM, 2010 yil.